

Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy amaliy markazi

"Ish samaradorlik ko'rsatkichlari" (KPI) ni aniqlashda Xotin-qizlar ish faoliyatini to'g'ri baholash, xotin-qizlar faolining "ish samaradorlik ko'rsatkichlari"da (KPI) ayollarning tazyiq va zo'ravonlikka uchrash faktini salbiy ko'rsatkich sifatida baholash amaliyotini bekor qilish

Bayonnomma №

28.06.2024

RIAKIIATM

Raislik qiluvchi: TOLIPOVA GULZIRA

Kotiba: ALIMBAYEVA GULHAN

Qatnashdi: Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy markazi o'rta va kichik tibbiyot xodimlari va shifokorlar.

Kun tartibi:

"Ish samaradorlik ko'rsatkichlari" (KPI) ni aniqlashda Xotin-qizlar ish faoliyatini to'g'ri baholash, xotin-qizlar faolining "ish samaradorlik ko'rsatkichlari"da (KPI) ayollarning tazyiq va zo'ravonlikka uchrash faktini salbiy ko'rsatkich sifatida baholash amaliyotini bekor qilish

ESHITILDI:

So'zga markaz manaviyat ishlari bo'yicha ma'sul Tolipova Gulzira so'zga chiqtilar va davlatimiz tarafidan ayollarga berilayotgan sharoitlar ayollarga nisbatan qilingan zo'ravonlikka qarshi kurashish maqsadida davlatimiz qonunchilik palatisa ishlab chiqilgan yangi qonun loyixasi zo'ravonlikka uchragan ayollarni ximoyasi va ularni bandligi xaqida so'z yuritdi: yollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosati quyidagilardan iborat:

Ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish, oilaviy-maishiy munosabatlari sohasidagi qonuniylikni, shuningdek ish joylari va ta'lif muassasalaridagi munosabatlarni mustahkamlash.

Turmushda, ish joylarida va ta'lif muassasalarida ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etilishiga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish.

Turmushda, ish joylarida va ta'lif muassasalarida ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni aniqlash, ularga chek qo'yish va ularning oldini olish uchun samarali qonunchilik mexanizmlarini yaratish.

Turmushda, ish joylarida va ta'lif muassasalarida tazyiq o'tkazish va zo'ravonlik sodir etishga moyil shaxslarning, shuningdek ayollarga tazyiq o'tkazadigan va zo'ravonlik sodir etadigan shaxslarning xulq-atvorini tuzatish yuzasidan tadbirlar amalga oshirish.

tazyiq va zo'ravonlik qurbanlari bo'lgan ayollarni himoya qilish, ularga yordam ko'rsatish, reabilitatsiya qilish uchun asoslar yaratish hamda ayollar tazyiq va zo'ravonlik qurbanlariga aylanish xavfini kamaytirish.

Ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish maqsadida turli institutlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash.

Quyidagilar ichki ishlar organlarining ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlariga kiradi:

Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlari, hududiy dasturlar va qonun ijodkorligi faoliyatini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirop etish. Bu qonun va boshqa qonun hujjatlarda belgilangan chora-tadbirlar yordamida, shuningdek ayollarga tazyiq o'tkazadigan va ularga nisbatan zo'ravonlik sodir etadigan shaxslar bilan muntazam

profilaktika ishlari olib borish orqali tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, shu jumladan ularning sabablari va ularga zamin yaratgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish.

Ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik yoki zo'ravonlik sodir etish xavfi to'g'risidagi murojaatlar va boshqa ma'lumotlarni qonun hujjalarda nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqish. tazyiq va zo'ravonlik holatlarini aniqlash hamda ularga o'z vaqtida e'tibor qaratish, shuningdek tazyiq va zo'ravonlik hollarining, zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning va zo'ravonlik qurbonlarining profilaktika hisobini yuritish, ayollarga tazyiq o'tkazish va zo'ravonlik sodir etish hollariga barham berish bo'yicha takliflar ishlab chiqqan holda bunday ma'lumotlarni tahlil qilish.

18 yoshga to'limgan ayol jinsiga mansub shaxslar tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan va ularga tazyiq o'tkazadigan hamda zo'ravonlik sodir etadigan ota-onalarni yoki ularning o'rnini bosadigan shaxslarni ota-onalar huquqlaridan mahrum qilish to'g'risida vasiylik va homiylik organlariga taqdimnoma kiritish;

Aholini ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlardan xabardor qilish;

Tazyiq va zo'ravonlikni aniqlash hamda ularga chek qo'yish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish orqali amalga oshiriladi.

Ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik hollarini aniqlash mexanizmlari quyidagilarni nazarda tutadi:

Vakolatli organlar tomonidan tazyiq va zo'ravonlik sabablari hamda shart-sharoitlari hisoblangan omillarni tahlil qilish, o'rganish hamda baholash.

statistika axborotini har chorakda davlat statistika organlariga kiritgan holda vakolatli organlar tomonidan tegishli statistika yuritish.

Ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni aniqlashning samarali huquqiy usullarini joriy etish tazyiq o'tkazishi va zo'ravonlik sodir etishi xavfi bo'lgan guruhlarga kiramidan yoki ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan preventiv tadbirlar o'tkazish.

Qaror qabul qilindi

1.Tazyiq o'tkazilgan va zo'ravonlik sodir etilgan holda qurbonlarga yordam ko'rsatish va ularni himoya qilish tadbirlarini amalga oshirish, zo'ravonlik sodir etgan shaxslar uchun esa ularning ayollarga nisbatan xulq-atvorini tuzatishga va huquqiy ta'qib qilish chora-tadbirlarini ko'rishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

2.Ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik oldi olinishini ta'minlash maqsadida manfaatdor institutlar bilan qo'shma dasturlar yaratish va qo'llab-quvvatlash.

3. Ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlarni qo'llash uchun asoslar quyidagilardan iborat bo'lisi mumkin:qurbonning, uning qonuniy vakilining murojaati yoki boshqa jismoni yoki yuridik shaxslarning ma'lumotlari.

4.Ayollarga tazyiq o'tkazish va zo'ravonlik sodir etish yoki ularni sodir etish tahdidi to'g'risidagi murojaatlar va ma'lumotlar ichki ishlar organlari tomonidan qonun hujjalarda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

5.Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi boshqa vakolatli organlar tazyiq va zo'ravonlik holatlari aniqlangan taqdirda, bu haqda tegishli ichki ishlar organlariga zudlik bilan xabar qilishi shart.

6.Ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlar profilaktik suhbat o'tkazish;

Markaz direktori professor

I.S.Razikova